

OILADA MULKNING SHARTNOMAVIY KO'RINISHLARINING KAFOLATI

Rustamova Shaxzoda

*Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand davlat universiteti
yuridik fakulteti 2-bosqich talabasi*

Qurbonov D.R.

Maxsus va huquqiy fanlar kafedrasida

Annotatsiya: *Quyidagi mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 6-bob."Er va xotin mol-mulkining shartnomaviy tartibi"29-36 moddalarini o'zichiga olgan boib,29-modda Nikoh shartnomasi; 36-modda Er-xotin o'rtasidagi mulkiy-shartnomaviy munosabatlarning obyektiv tomonlari alohida tahlil etiladi.Qonunchiligimizning mazkur amaliyot natijalari ham bu borada statistikasi masalalari ko'riladi.*

Kalit so'zlar: *oilaviy munosabatlar,er va xotin,nikoh,nikoh shartnomasi,davlatro'yxati,FHDYO,guvohnoma,kelishuv,birgalikdagimulk,majburiyatlar,mulkiy-shartnomaviy munosabatlar,nikoh qaydlari.*

Аннотация: *В следующей статье содержатся статьи 29-36 главы 6 Семейного кодекса Республики Узбекистан «Договорный порядок имущества мужа и жены», статья 29 - Брачный договор; статья 36 - отдельно анализируются объективные стороны имущественно-договорных отношений между супругами, а также анализируются практические результаты нашего законодательства.*

Ключевые слова: *семейные отношения, муж и жена, брак, брачный договор, государственный реестр, ФХДИО, свидетельство, договор,совместное имущество, обязательства, имущественно-договорные отношения, записи о браке*

Anatation: *The following article contains articles 29-36 of Chapter 6 of the Family Code of the Republic of Uzbekistan "Contractual procedure of property of husband and wife", Article 29-29-Marriage contract; Article 36 The objective aspects of the property-contractual relations between the spouses are analyzed separately. The practical results of our legislation are also analyzed in this regard.*

Key words: *family relations, husband and wife, marriage, marriage contract, state register, FHDYO, certificate, agreement, joint property, obligations, property-contractual relations, marriage records*


Insonning hayoti va turmushida, ayniqsa, yosh avlodning kamolot topishida, axloqiy voyaga yetishida oilaning o'rni va vazifasi beqiyosdir. Prezidentimiz I. A. Karimov ta'kidlaganidek: "Bola tug'ilgan kundan boshlab oila muhitida yashaydi. Oilaga xos an'analar, qadriyatlar, urf - odatlar bola zuvalasini shakllantiradi. Eng muhimi, farzandlar oilaviy hayot maktabi orqali jamiyat talablarini angelaydi, xis etadi".⁴ Yutrboshimiz yana uqtirganidek: "Xalqimiz tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, eng qimmatli an'analar: halollik, rostgo'ylik, or - nomus, sharmu - xayo', mehru - oqibat, mehnatsevarlik kabi barcha insoniy fazilatlar eng avvalo oilada shakllangan"⁵. Bas shunday ekan, oila va nikoh nima, ularning mohiyati, maqsadi va ahamiyatini bilish har bir fuqaro, har bir bo'lajak mutaxassis, yosh avloddan tortib keksa kishilargacha bilishi zarur va muhimdir.

Xo'sh, nikoh nima? Nikoh arabcha so'z bo'lib, nikoh to'g'risida ham turli ta'riflar bor. Shundan eng ma'quli quyidagi ta'rifdir: "Nikoh ikki jinsdagi shaxslarning oilaviy munosabatlarda ishtirok etish uchun o'zaro ahdlashuvidir".² Nikoh fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FXDYO) bo'limida tuziladi va rasmiylashtiriladi. Demak, nikoh - oilaning faqat huquqiy asosi bo'lib, erkak bilan ayolning bir - biriga va bolalariga, ya'ni bir oilaga mansub kishilarning bir - birlari oldida va jamiyat oldida huquq va majburiyatlarini, axloqiy va huquqiy ma'suliyatini belgilaydigan oilaviy ittifoqidir. Demak, oila nikoh asosida vujudga keladi. Lekin oila va nikoh aynan bir tushunchalar emas. Oila - nikoh va qon-qardoshlik bilan bog'langan kishilarning tarixan shakllangan ittifoqidir, eng avvalo, er va xotin, ota - onalar bilan bolalar o'rtasidagi munosabatlardir. Nikoh - oilaning faqat huquqiy asosi bo'lib, bir oilaga mansub kishilarning, eng avvalo, er va xotinning va farzandlarning bir -birlari oldida huquq va majburiyatlarini, axloqiy va huquqiy ma'suliyatini ifodalaydi.

⁴ Prezidentimiz I. A. Karimov ta'kidlaganidek: "Bola tug'ilgan kundan boshlab oila muhitida yashaydi. Oilaga xos an'analar, qadriyatlar, urf - odatlar bola zuvalasini shakllantiradi. Eng muhimi, farzandlar **oilaviy hayot maktabi** orqali jamiyat talablarini angelaydi, xis etadi". Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot — pirovard maqsadimiz. — O'zbekiston. 2000yil 78-bet.

⁵ Yutrboshimiz yana uqtirganidek: "Xalqimiz tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, eng qimmatli an'analar: halollik, rostgo'ylik, or - nomus, sharmu - xayo', mehru - oqibat, mehnatsevarlik kabi barcha insoniy fazilatlar eng avvalo **oilada** shakllangan" Barkamol avlod orzusi kitobi 2000-yil.98 b.

Oila shakllari nikoh xarakteriga qarab ham bir -biridan farq qiladi:



Mashhur amerikalik faylasuf Jorj SaktaYana (1803-1952) ta'kidlaganidek: "Oila, bu — tabiatning shoh asarlaridan biriga aylandi".⁶ Fransuz yozuvchisi V. M. Gyugo (1802-1885): "Oila - jamiyatning duru gavhari"⁷, — degan edi. Buyuk tatar olimi Rizouddin ibn Faxruddin (1848-1917) "Oila" asarida Shunday degan edi: "Millatlar sharafini yuqori martabaga ko'taradigan narsa millionlar ila sanalmoqda bo'lgan askarlaru dunyoda eng buyuk va zo'r bo'lgan kemalar emas, balki eng oz e'tibor beradiganimiz, yo bo'lmasa hech bir zamon e'tibor bermasdan keladiganimiz bo'lmish oiladir. Oila nizomsiz bo'lsa, uning yomon oqibati butun millatga ta'sir etar va shu sababdan fazilat yeriga razolat, taraqqiyot o'rniga tubanlik negiz ko'rar. Xudoning o'zi asrasinku, agarda bir millatga bunday hol ro'baru kelsa, u millat kitobining so'nggi varag'i ochulg'usidir"⁸

⁶ Amerikalik faylasuf Jorj SaktaYana (1803-1952) ta'kidlaganidek: "Oila, bu — tabiatning shoh asarlaridan biriga aylandi"

⁷ Fransuz yozuvchisi V. M. Gyugo (1802-1885): "Oila - jamiyatning duru gavhari"

⁸ Buyuk tatar olimi Rizouddin ibn Faxruddin (1848-1917) "Oila" asarida: "Millatlar sharafini yuqori martabaga ko'taradigan narsa millionlar ila sanalmoqda bo'lgan askarlaru dunyoda eng buyuk va zo'r bo'lgan kemalar emas, balki eng oz e'tibor beradiganimiz, yo bo'lmasa hech bir zamon e'tibor bermasdan keladiganimiz bo'lmish oiladir. Oila nizomsiz bo'lsa, uning yomon oqibati butun millatga ta'sir etar va shu sababdan fazilat yeriga razolat, taraqqiyot o'rniga tubanlik negiz ko'rar. Xudoning o'zi asrasinku, agarda bir millatga bunday hol ro'baru kelsa, u millat kitobining so'nggi varag'i ochulg'usidir"

Oilaviy munosabatlar ma'lum huquqiy va axloqiy asoslarga ega. O'zbekiston Respublikasining 1998 yil 30 aprelda qabul qilingan Oila kodeksining "Er va xotin mol-mulkingining shartnomaviy tartibi"deb nomlanuvchi 6-bobi, 29-36 moddalari ilk marotaba milliy qonunchiligimizga "Nikoh shartnomasi" tushunchasining kirib kelishiga poydevor bo'ldi. Unga ko'ra, Nikohlanuvchi shaxslarning yoki er va xotinning nikohda bo'lgan davrida va (yoki) er va xotin nikohdan ajratilgan taqdirda ularning mulkiy huquq hamda majburiyatlarini belgilovchi kelishuvi nikoh shartnomasi deb hisoblanadi. Nikoh shartnomasi nikoh davlat ro'yxatiga olinguniga qadar ham, shuningdek nikoh davrida ham tuzilishi mumkin.

Nikoh davlat ro'yxatiga olingunga qadar tuzilgan nikoh shartnomasi nikoh davlat ro'yxatiga olingan kundan boshlab kuchga kiradi.

Nikoh shartnomasi yozma shaklda tuziladi va notarial tartibda tasdiqlanishi lozim. Ushbu modda mazmunidan ko'rinib turibdiki, nikoh shartnomasi er va xotinning mol-mulklarini va mulkiy huquqlarini bo'lish to'g'risidagi kelishuv hisoblansa, "Nikoh" deganda esa nikoh yoshiga yrtgan (18) yigit va qizning o'z arizalariga asosan FHDYO organlarida ro'yxatga olinib oila qurish maqsadida er-xotin bo'lib yashash to'g'risidagi kelishuviga aytiladi. Oila qonunchiligi FHDYO organlaridarasmiy ro'yxatga olingan nikohni qonuniy tuzilganligini tan oladi. Diniy rasm-rusumlarga binoan tuzilgan nikoh esa huquqiy ahamiyatga ega emas. Shu o'rinda nikoh shartnomasi va nikoh tuzilganligi haqidagi guvohnoma bir-biridan farq qilishini eslatib o'tamiz. Nikoh tuzilganligi haqidagi guvohnoma nikohlanuvchi shaxslarga er-xotin maqomini beruvchi, oilaviy huquq va majburiyatlar keltirib chiqaruvchi, FHDYO organi tomonidan beriladigan qonuniy nikohning mavjud ekanligi fakti hisoblanadi.

Ya'ni turmush qurish istagida bo'lgan shaxslar FHDYO ga murojaat qiladilar, va ariza berganlaridan keyin bir oy o'tgach, ularning nikohi tuzilgan hisoblanib, ularga nikoh tuzilganligi to'g'risida guvohnoma beriladi. Nikoh shartnomasi esa aynan er-xotin tomonidan emas, balki hali oilaviy munosabatlari vujudga kelmagan nikohlanuvchi shaxslar tomonidan ham tuzilishi mumkin bo'lgan kelishuvdir. Nikoh shartnomasi yozma shaklda tuziladi va notarial tartibda tasdiqlanadi. Oila kodeksiga asosan, "Nikoh shartnomasi" tuzish ixtiyoriy hisoblanadi va uni tuuzishga majburlashga yo'l qo'yilmaydi. Nikoh shartnomasini yuzish tomonlar, ya'ni er va xotin uchun mulkiy huquq va majburiyatlarni keltirib chiqaradi. Milliy qonunchilikka asosan, nikoh davrida topilgan barcha narsa birgalikdagi mulk sanaladi. Ammo nikoh shartnomasining o'ziga xos jihati shundaki, ushbu qoida tomonlarning xoxish - istagiga qarab o'zgartirilishi mumkin. Qoida tariqasida nikoh shartnomasining maqsadi mulkni alohida yoki ulushga almashtirish hisoblanadi.

Nikoh shartnomasi er-xotinning kelishuvi bilan istalgan vaqtda o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin. Nikoh shartnomasi qanday shaklda tuzilgan bo'lsa, uning o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi ham shunday shaklda amalga oshiriladi. Nikoh shartnomasini bajarishdan bir tomonlama bosh tortishga yo'l qo'yilmaydi. Nikoh shartnomasi er-xotindan birining talabi bilan O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida belgilangan asoslar va tartibda sudning hal qiluv qarori bilan o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin.

Nikoh tugatilgan paytdan boshlab nikoh shartnomasining amal qilishi ham tugaydi, nikoh shartnomasida nikoh tugatilganidan keyingi davr uchun nazarda tutilgan majburiyatlar bundan mustasno. Er (xotin)ning majburiyatlari bo'yicha haq undirish faqat uning mol-mulkiga qaratilishi mumkin. Ushbu mol-mulk yetarli bo'lmagan taqdirda haq undirishni er-xotinning mol-mulkiga qaratish uchun kreditor qarzdor er (xotin) ulushini er-xotinning umumiy mol-mulkidan ajratib undirib berilishini talab qilishga haqlidir. Agar sud er (xotin)ning majburiyatlari bo'yicha orttirilgan barcha ashyolar oila ehtiyojlari uchun ishlatilganligini aniqlasa, er-xotinning umumiy majburiyatlari bo'yicha, shuningdek er (xotin)ning majburiyatlari bo'yicha haq undirish er-xotinning umumiy mol-mulkiga qaratiladi. Bu mol-mulk yetarli bo'lmagan taqdirda er-xotin ko'rsatib o'tilgan majburiyatlar yuzasidan ularning har biriga qarashli mol-mulk bilan sherik javobgar bo'ladi. Agar er-xotinning umumiy mol-mulki ularning biri tomonidan jinoiy yo'l bilan topilgan mablag' hisobiga orttirilgani yoki ko'paygani sud hukmi bilan aniqlangan bo'lsa, haqni undirish tegishli ravishda er-xotinning umumiy mol-mulkiga yoki uning bir qismiga qaratilishi mumkin. Er-xotinning voyaga yetmagan bolalari yetkazgan zarar uchun javobgarligi fuqarolik qonunchiligi bilan belgilanadi. Oila kodeksining 36-moddasiga ko'ra er-xotin o'rtasidagi mulkiy-shartnomaviy munosabatlarda er-xotin qonunda yo'l qo'yiladigan barcha mulkiy-shartnomaviy munosabatlarga o'zaro kirishishga haqlidir. Er-xotin o'rtasida tuzilgan, ulardan birining huquqlarini cheklashga qaratilgan kelishuvlar haqiqiy hisoblanmaydi.

Qonunchiligimizga ko'ra mazkur amaliyot natijalaridan shuni ko'rishimiz mumkinki nikoh shartnomasi tuzish holati bo'yicha amaliyotni tahlil etganda ma'lum qilinishicha, 2021 yilning olti oyi mobaynida Samarqand viloyatida Fuqarolik holatlarini qayd etish bo'limlari tomonidan 13 316 ta nikoh qayd etilgan. 2041 ta nikoh bekor qilingan. Qayd etilishicha, viloyatda eng yuqori nikoh koyeffitsiyenti (promille), Payariqda – 8,2, Kattaqo'rg'on shahrida – 7,8, Jomboyda – 7,6 va Paxtachi tumanida – 7,4 probille kuzatilgan. Eng kam nikoh tuzish koyeffitsiyenti (promille) Nurobodda – 5,5, Samarqand shahrida – 6,1, Qo'shrabotda – 6,3 va Toyloq tumanida – 6,4 promille qayd etilgan. Ta'kidlanishicha, 2021 yilning yanvar-

iyun oylarida FHDYo bo‘limlari tomonidan 2 041 ta nikoh ajralishlari qayd. Ushbu ko‘rsatkich, 1000 nafar aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti 1,0 promilleni tashkil etgan. Nikoh bekor qilinishi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Samarqand shahrida qayd etilgan – 459 ta (1,7 promille). Keyingi o‘rinlarda, Past Darg‘om – 187 ta (1,0 promille), Samarqand tumani – 183 ta (1,4 promille). Nikoh bekor qilinishi bo‘yicha eng past ko‘rsatkich Nurobod – 43 ta, (0,6 promille), Qo‘shrabot – 55 ta (0,8 promille), Oqdaryo tumanida – 66 ta (0,8 promille). Aholi soniga hisoblaganda nikoh bekor qilinishi bo‘yicha ko‘rsatkich eng past ko‘rsatkich Urgut tumanida – 137 ta (0,5 promille). Davlat statistika qo‘mitasining dastlabki ma‘lumotlariga ko‘ra, 2022-yilning yanvar-mart oylarida respublika bo‘yicha 57 873 ta nikoh holatlari qayd etilgan.

Xulosa qilib aytganda, nikoh erkak va ayol o‘rtasidagi muqaddas rishta bo‘lib, nikoh shartnomasi esa muqaddas nikohning bardavomligini ta‘minlashga, er va xotinning mulkiy huquq hamda manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan o‘zaro kelishuvdir deb hisoblayman. Zero bu kelishuv er va xotinning boshqa shaxslarning aralashuvisiz o‘zaro xohish irodasiga asoslangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. “Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot — pirovard maqsadimiz”. — T.: O‘zbekiston. 2000
2. O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi 1998 y. 30-aprel.”Yuridik adabiyotlar publish”, 2021 yangi nashriga ko‘ra-15-18 betlar.
3. Rizouddin ibn Faxruddin (1848-1917) "Oila" asari. N.A.Qo‘ldashev, IIB akademiyasi “Fuqarolik huquqi fanlari” kafedrasida boshlig‘i, y.f.n./dotsent podpolkovnik ma‘ruza nutqi.
4. Elektron ta‘lim resurslari:
5. <https://iiv.uz/oz/news/nikoh-va-nikoh-shartnomasi-nazariy-va-amaliy-tahlil>
6. <https://azkurs.org/nikoh-va-oilaning-ahloqiy-asoslariyning-yoshlar-tarbiyasidagi.html>
7. <https://kun.uz/uz/39154058>